



## OLIV TA'LIMDA O'QUV JARAYONLARINI SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT MODUL TIZIMI

**Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li**

**Isroilov Yusufjon Kamoliddin o'g'li**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi magistrantlari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limda o'quv jarayonlarini sifatini oshirishda kredit modul tizimiga o'tish jarayonlari, kredit modul tizimining mazmun mohiyati va avfzalliklari haqida fikrlar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** kredit modul tizimi, o'quv jarayoni, ta'lim dasturlari, ta'lim tarbiya subektlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul' tizimiga o'tishi rejalashtirilgan.<sup>34</sup>

Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul' tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari,

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni



kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovasion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini sub'ektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Kredit ta'lim tizimini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit ta'lim tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi uning ko'plab dunyo davlatlari ta'lim tizimlarida ko'proq tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ijodiy faollikni va bilim olishga o'zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.<sup>35</sup>

Kredit-modul' tizimiga o'tishda bir qator muammoli jihatlarga e'tiborimizni qaratishimiz va bu tizimning afzallik jihatlari urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, talabaning umumiy yuklamasi auditoriya va mustaqil ta'lim yuklamalaridan iborat. Amaldagi ta'lim tizimida auditoriya yuklamalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda, lekin mustaqil ish turlari hali ommalashmagan. Kredit tizimida eng avvalo talabaning mustaqil ishiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Kredit bu baho emas, balki ish hajmi hisoblanadi. Masalan, talaba 5 kreditlik fanni o'zlashtirgan bo'lsa, u 5 kredit hajmidagi ishni bajargan hisoblanadi, ya'ni u ushbu fanning ma'ruzalarida, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida qatnashgan, mustaqil ish topshiriqlarini bajargan hisoblanadi. Demak, bu fanni o'zlashtirgan

<sup>35</sup> O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.





talaba uni qanday bahoga o'zlashtirganidan qat'iy nazar u 5 kreditni qo'lga kiritadi. Kredit-modul' tizimining mazmun-mohiyatini ochib berishda uni faqat "kredit" va "modul" atamaları orqali izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu atamalar uni ixcham nomlash uchun qo'llanilgan, xolos. Biz kredit-modul' tizimining mohiyatini boshqacha usulda ochib bermoqchimiz. Ya'ni, biz kitobning yaratilishiga asos bo'lgan tamoyillar, kredit-modul' tizimining amaldagi ta'lim tizimidan farq qiluvchi jihatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, kredit-modul' tizimining asosiy tamoyillari va elementlari qisman O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq qilingan.

Universitet va uning filiallarida ta'limning kredit tizimini joriy etishning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan edi:

- rivojlangan davlatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ilg'or tajribalari va tavsiyanomalardan foydalangan holda, xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish, Universitet va uning filiallarini malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash, sifatli o'quv dasturlari va o'quv materiallarini ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini oshirish;

- xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar, professor-o'qituvchilar, izlanuvchilarning almashinuv dasturlarini kengaytirish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari va o'quv jarayonlarini tashkil etishning samarali shakllarini o'zlashtirish orqali pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashuvchi raqobat muhitini yaratish;

- talabaga ta'lim dasturini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratish va bilimni baholashning oshkoraligini ta'minlash.

O'tgan davr mobaynida ushbu qarorni amalga oshirish va ta'lim tizimida kredit - modul tizimini joriy etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Lekin shu bilan birga hozirgi kunda kredit tizimi o'z maqsadiga erishdi deb hisoblash qiyin. Bunga ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjud bo'lib, ular kredit tizimining to'liq tadbiq etilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bizning fikrimizcha quyidagi ishlarga alohida e'tibor berilishi lozim.

1. Oliy ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkillashtirish uchun kredit modul tizimiga bevosita oid hamda oliy ta'lim o'quv jarayonining parametrlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish. Kredit tizimini tashkil etishga zid bo'lgan tushunchalarni bartaraf etish va cheklovlarni bartaraf etish.



2. Har bir talabani butun ta'lim olish davri bo'yicha majburiy va tanlov zaruriy fanlari nomlari, har bir fan bo'yicha kreditlari ko'rsatilgan o'quv rejalari hamda fan sillabuslari va boshqa o'quv-uslubiy materiallarni o'z ichiga olgan o'quv metodik kompleks bilan ta'minlash.

3. Professor-o'qituvchi va talabani ularning o'qish shaklini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy va kechki) hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan universitetdagi kredit tizimi tuzilmasi va faoliyati bo'yicha to'liq yo'riqnoma bilan ta'minlash.

4. Mustaqil ta'limni (o'qish shaklini hisobga olgan holda) tashkil etish metodikasini va uslubiy ta'minotini ishlab chiqish.

5. Talabalarning professor-o'qituvchilarni va fanlarni tanlash huquqini amalga oshirish.

6. Talabalarning fanlar bo'yicha ruxsat etilgan soatlardan ortiq sababsiz dars soatlarini qoldirishlariga yo'l qo'ymasliklariga erishish va ularning tegishli fanlarni qayta o'qishlarini ta'minlash.

7. Kafedralar tarkibini va professor-o'qituvchilar yuklamalarini o'z vaqtida shakllantirish maqsadida talabalarning fanlarni tanlash jarayonini tegishli o'quv semestrndan 2 oy oldin o'tkazish.

8. Talabalar bilan mustaqil ishlar samaradorligini va o'quv jarayoni sifatini keskin oshirish maqsadida professor-o'qituvchilar yuklamalarining o'quv mashg'ulotlari soatini kamaytirish. Bunda umumiy 1540 soatli yuklamadan o'quv mashg'ulotlariga (ma'ruza, kurs ishi, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari olib borish, bitiruv ishi va magisterlik dissertatsiyaga rahbarlik xamda maslahat berish, amaliyotlarga rahbarlik va boshqalar) - 40%, o'qituvchi rahbarligida mustaqil ishlarni olib borishga - 30%, ilmiy va metodik ishlarga-30% ajratilishiga erishish.

Shubhasiz, ushbu takliflarning qisman bo'lsa ham amalga oshirilishi oliy ta'limda o'quv jarayoni sifatiga ta'sir etuvchi omillardan bo'ladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.-Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet.
3. O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O'quv qo'llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020 y.

